

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|   |     |
|---|-----|
| <b>I.R.Asqarov, O.Sh.Abdulloyev, Q.Q.Otaxonov, Z.N.Razzaqov</b>   |     |
| Analysis of the content of water-soluble vitamins in the food supplement AS-RAZZOQ .....  | 6   |
| <b>S.M.Ikramova, D.N.Shaxidova, H.G'.Qurbanov, D.A.Gafurova</b>   |     |
| Nikel ionlarini sorbsiyalash uchun yangi ion almashuvchi materialning ishlatalishi .....  | 12  |
| <b>N.M.Qoraboyeva, D.A.Gafurova, B.T.Orziqulov, H.G'.Qurbanov</b>   |     |
| Polikompleksonning olinishi va fizik-kimyoviy xossalari.....  | 18  |
| <b>M.A.Axmadaliyev, N.M.Yakubova, I.R.Xasanboyev</b>  |     |
| $\alpha,\beta$ -To'yinmagan ketonlarni olish.....   | 25  |
| <b>A.X.Xaydarov, O.M.Nazarov, X.N.Saminov</b>   |     |
| Olma o'simligi barglari efir moylarining kimyoviy tarkibini o'rganish.....  | 30  |
| <b>M.N.Po'latova, S.Y.Xushvaqtov, D.J.Bekchanov,</b>  |     |
| Tarkibida amino va karboksil guruh tutgan polikompleksonlarning olinishi va xossalari<br>(sharhiy maqola) .....                                 | 36  |
| <b>D.A.Eshtursunov, A.Inxonova, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev</b>  |     |
| Magnit xossalni polimer nanokompoziti yordamida farmatsevtika chiqindi suvlaridagi<br>paratsetamolning fotokatalitik degradasiysi .....         | 43  |
| <b>Y.S.Fayzullayev, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev, M.R.Murtozaqulov, X.U.Usmonova</b>  |     |
| Tarkibida amino va fosfon guruh saqlagan yangi avlod ion almashinuvchi materiali olish .....  | 53  |
| <b>V.U.Xo'jayev S.S.Omonova</b>   |     |
| O'zbekistonda keng tarqalgan <i>Heliotropium</i> turkumiga mansub ba'zi o'simliklarning<br>element tarkibini tadqiq qilish .....                | 56  |
| <b>SH.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda, S.S.G'ulomova</b>   |     |
| <i>Liridendron tulipifera</i> L. o'simligining alkaloid tarkibini o'rganish .....   | 63  |
| <b>D.G'.Urmonov, M.M.Axadjonov</b>  |     |
| <i>Limonium otolepis</i> ildiz po'stlog'idagi kondensirlangan tanninlarning miqdoriy va<br>spektroskopik tahlili .....                          | 66  |
| <b>N.M.Yuldasheva, B.J.Komilov K.A.Eshbakova, SH.A.Sulaymonov, B.D.Mamasulov</b>  |     |
| <i>Inula rhizocephala</i> gul qismi efir moyining kimyoviy tarkibi va mikroblarga qarshi faolligi .....   | 70  |
| <b>A.M.No'monov, S.R.Mirsalimova, A.B.Abdikamalova, D.A.Ergashev</b>  |     |
| Log'on bentonitini boyitish va uni modifikatsiyalab olingan organobentonitlarni<br>skanerlovchi elektron mikroskop yordamida tahlil qilish..... | 76  |
| <b>M.Sh.Muxtorova, V.U.Xo'jayev, U.V.Muqimjonova</b>  |     |
| <i>Lonicera nummularifolia</i> o'simligi bargi, ildizi va poyasi tarkibidagi aminokislotalar tahlili .....                                      | 83  |
| <b>Z.M.Chalaboyeva, M.J.Jalilov, S.R.Razzoqova, Sh.A.Kadirova, Sh.Sh.Turg'unboyev</b>   |     |
| N-(1h-1,2,4-triazol-II) asetamidni rux (II) xlorid bilan kompleks birikmasining sintezi va tadqiqoti ..   | 88  |
| <b>D.A.Eshtursunov, I.I.Abdujalilov, D.J.Bekchanov, A.T.Xasanov</b>   |     |
| Ppe-1/Nio nanozarrachalari orqali asetamiprid (pestitsid)ning fotokatalitik parchalanishi .....   | 94  |
| <b>I.R.Askarov, Ch.S.Abdujabborova</b>  |     |
| Analysis of the biological activity of the food additive "As lupinus" .....   | 100 |
| <b>X.X.Usmonova, M.G.Muxamediev</b>   |     |
| AN-31 Anion almashinuvchi materialga Cu(II) ionlari sorbsiyasi.....   | 104 |
| <b>I.I.Abdujalilov, D.A.Eshtursunov, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev</b>   |     |
| Metal oksid zarrachalarini saqlagan funksional polimer kompleksining olinishi va<br>uning spektroskopik tahlili .....                           | 109 |
| <b>I.R.Askarov, M.M.Khojimatov, D.S.Khojimatova</b>   |     |
| Methods for determining the acute poisoning and cumulative properties of a natural remedy<br>"As-Sultan" .....                                  | 115 |
| <b>F.X.Bo'riyev, E.M.Ziyadullayev, G.Q.Otamuxamedova, F.Z.Qo'shboqov, O.E.Ziyadullayev</b>  |     |
| Atsetilen spirtlarining oksidlanish jarayonlariga katalizatorlar ta'siri .....  | 120 |

## BIOLOGIYA

**M.A.Masodikova, G.M.Zokirova, I.I.Zokirov**

First recorded geographical distribution and biology of *Euproctis chrysorrhoea*  
(Lepidoptera: Erebidae) in the Fergana valley, Uzbekistan .....



УО'К: 581.1:581.5

**LIRIDENDRON TULIPIFERA L. O'SIMLIGINING ALKALOID TARKIBINI O'RGANISH****АЛКАЛОИД РАСТЕНИЯ LIRIDENDRON TULIPIFERA L. УЗНАТЬ СОДЕРЖАНИЕ****STUDY OF THE ALKALOID COMPOSITION OF LYRIDENDRON TULIPIFERA L.****Mamajonov Shuxratjon Askarovich<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, p.f.n., dotsent**Odilxo'jazoda Nigoraxon Baxtiyorxo'ja qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, p.f.f.d.,(PhD), dotsent**G'ulomova Sarvinozxon Sodirjon qizi<sup>3</sup>**<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada *Liridendron tulipifera L.* o'simligi alkaloid tarkibini tadqiq qilish natijalari keltirilgan. *Liridendron tulipifera L.* tarkibi UB, IQ va mass spektromeriya usuli bilan o'rganildi. Aniqlangan alkaloidlarni tuzilishi yuqoridagi usullar yordamida tasdiqlandi.

**Аннотация**

В статье представлены результаты исследования содержания алкалоидов в растении *Liridendron tulipifera L.*. Состав *Liridendron tulipifera L.* изучали методами УФ, ИК и масс-спектрометрии. Строение выявленных алкалоидов подтверждено указанными выше методами.

**Abstract**

This article presents the results of a study of the alkaloid composition of *Liridendron tulipifera L.* The composition of *Liridendron tulipifera L* was studied using UV, IR, and mass spectrometry. The structures of the identified alkaloids were confirmed using the above methods.

**Kalit so'zlar:** *Liridendron tulipifera L.*, alkaloid, UB, IQ, Lirinin, Lirinidin, barg, ildiz, roya.**Ключевые слова:** *Liridendron tulipifera L.*, алкалоид, UB, IR, лиринин, лиринидин, лист, корень, стебель.**Key words:** *Liridendron tulipifera L.*, alkaloid, UV, IR, Lirinin, Lirinidin, leaf, root, stem.**KIRISH**

Lola daraxti tabiiy sharoitlarda AQShning sharqida o'sadigan *Magnoliaceae* oilasiga kiruvchi balva bargli daraxtdir. Botanik nomi: *Liridendron tulipifera L.* Asosan ikki turi keng tarqalgan, ulardan biri Shimoliy Amerikada (*Liridendron tulipifera L.*), ikkinchisi Xitoyda o'sadi (*Liridendron chinensis L.*). Lola daraxti *Magnoliaceae* oilasi va *Liridendroideae* kichik oilasiga kiradi. *Liridendron*, yunonchasiga "Lily Tree" Leirion yoki *lirion* ni anglatib "Lily"dir, dendron esa "daraxt" ma'nosini belgisini beradi. Lotinchisiga esa lolalarga o'xhash bo'lgani uchun, o'ziga xos epitet, *tulipifera*, yani "lola qo'lli" deb nomlangan.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR**

*Liriodendron tulipifera L.* o'simligini kimyoviy tarkibini o'raginsh 1935-yilda A.P.Orexov tomonidan birinchi marta amalga oshirilgan bo'lib, u o'simlikni barglari tarkibida alkaloidlar borligini aniqlagan edi [1]. 1960-yilda M.A.Buchnan va E.E.Dickey hamda biroz keyinroq W.J.Taylor bu o'simlikni yog'och qismidan gliutsin, liriodenin va O-metilaterolin alkaloidlarini ajratib olganlar. O'simlikni kimyoviy tarkibini izchil o'ragnish 1973-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi S.Yu.Yunusov nomidagi o'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan amalga oshirilgan [2]. O'simlikni barcha organlarida alkaloidlar borligi aniqlandi (1-jadval) [2]. Olimlarimiz

tomonidan aporfin hamda ularni degidro-, okso-, 7-gidroksi hosilalariga tegishli bo'lgan 30 ga yaqin, ulardan 11 ta yangi alkaloidlar ajratib olingan.

**1-jadval**

**Liridendron tulipifera L. o'simligini turli organlarida alkaloidlar miqdori.**

| Nº | O'simlik organi  | Vegetatsiya davri     | Alkaloidlar miqdori mg |
|----|------------------|-----------------------|------------------------|
| 1  | Barglari         | Gullashni boshlanishi | 0.32                   |
| 2  | Barglari         | Gullash davri         | 0.28                   |
| 3  | Barglari         | Meva berish davri     | 0.23                   |
| 4  | Barglari         | Qurib qolgan davri    | 0.14                   |
| 5  | Sarg'ish barglar | Qurib qolgan davri    | 0.11                   |
| 6  | Yog'och qismi    | Gullashni tugashi     | 0.15                   |
| 7  | Qobiq            | Gullashni tugashi     | 0.11                   |
| 8  | Yosh nihollari   | Gullash davri         | 0.12                   |
| 9  | Gul barglari     | Gullashni tugashi     | 0.10                   |
| 10 | Urug'lari        | Qurib qolgan davri    | 0.087                  |

## NATIJALAR VA MUHOKAMA


### Lirinidin tuzilishi

*Liridendron tulipifera L.* o'simligini barglaridan ajratib olingan kuchsiz fenol xossasiga ega, xlorgidrat tarzida ajratib olingan asos. IQ-spektri d-kaaverin va d-nornutseferinga aynan o'xshashdir. Lirinidinning IQ-spektrida  $3200-3400\text{cm}^{-1}$  da keng yutilish chizig'i bo'lib, molekulada gidrosil guruhi borligini ko'rsatadi. Lirinidinni piridinda sırka angidrid bilan asetillash natijasida O-asetillirinidin hosil qilingan.  $^1\text{H}$  YaMR-spektrda  $>\text{N}-\text{CH}_3$  protonlarining signallari 2.47 m.u. da uchprotonli singlet hamda metoksil guruhning signali 3.81 m.u. da uchprotonli singlet tarzida namoyon bo'ladi. Lirinidin  $^1\text{H}$  YaMR-spektrida kuchsiz maydon sohasida C-11 protonga tegishli 8.27 m.u. da bir protonli multiplet, C-3 protonning signallari 6.57 m.u. da bir protonli singlet hamda 7.05-7.35 m.u. da uch protonli multiplet namoyon bo'ladi. O-asetillirinidin  $^1\text{H}$  YaMR-spektrida C-11 holatdagi aromatik proton signali 0.48 m.u. da diamagnit siljishga uchraydi. Bu C-1 holatdagi asetyl guruhni ta'siri orqali sodir bo'ladi hamda lirinidinda gidrosil C-1 holatda joylashganlini ko'rsatadi. UB-,  $^1\text{H}$  YaMR-spektr va mass-spektrlari d-kaaveringa yaqindir. Lirinidin d-kaaverindan bitta N-metil guruhiga farq qiladi. Amalda d-kaaverinni Gess usuli bo'yicha metillash natijasida lirinidinga aynan o'xshash asos hosil qilingan. Yuqoridaqgi ta'kidlanganlarga asoslanib lirinidin 1-gidroksi-2-metoksiaporfin tuzilishga ekanligini tasdiqlash mumkin.

### Lirinin tuzilishi.

*Liridendron tulipifera L.* o'simligini barglaridan ajratib olingan birinchi aporfin alkaloiddir. Lirininni (2.4)  $^1\text{H}$  YaMR-spektrida kuchsiz maydonda C-11 dagi aromatik protonga tegishli bir protonli multiplet 8.16 m.u. da namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda 7.10-7.28 m.u. da uch protonli multiplet namoyon bo'lib, bu signal kaaverin, nornuseferin, lirinidin kabi aporfin qator alkaloidlarda ham kuzatilgan. Lirinin D halqada almashimagan, A halqada C-1,C-2 va C-3 da joylashgan bitta gidrosil hamda ikkita metoksil guruhga ega bo'lgan aporfin alkaloiddir.  $^1\text{H}$  YaMR-spektrida namoyon bo'ladiqan 3.63 m.u. dagi uch protonli intensivlikka ega singlet metoksil guruhlardan birini C-1, ikkinchisi esa C-2 yoki C-3 da joylashganligini ko'rsatadi. Lirinin lirinidinga o'xshash emas. Lirinin va lirinidinni diazometan bilan metillash natijasida O-metillirininin hosil bo'ladi. O-metillirininni xrom angidridi bilan oksidlash natijasida O-metilmoxsatolin (liridin) hosil bo'ladi.

## KIMYO



Lirinin - 1.2-dimetoksi-3-gidroksiaporfin, O-metillirinin (2.5) -1.2.3-trimetoksiaporfin, liridinin (2.6) esa - lirinin 1.3-dimetoksi-2-gidroksiaporfin tuzilishga ega. Lirinin, O-metillirinin va liridinin mass-spektrlariularni aporfin alkaloidlarga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Ularni mass-spektrlarida ionlarning quyidagi ionlarning intensiv cho'qqilarini namoyon bo'ladi:  $\text{M}^+$ (100%),  $(\text{M}-1)^+$ ,  $(\text{M}-15)^+$ ,  $(\text{M}-17)^+$ ,  $(\text{M}-31)^+$ ,  $(\text{M}-43)^+$ .

## XULOSA

*Liridendron tulipifera* L. o'simliginining alkaloidlar tarkibini tuzilishi IQ-,  ${}^1\text{H}$  YaMR spektrometriya usullarida aniqlandi. Tahlil natijasida lirinin, liridinin alkaloidlarini tuzilishi aniqlandi. Ularni mass-spektrlarida ionlarning intensiv cho'qqilarini aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Орехов А.П. Химия алкалоидов растений СССР.М.:Наука.-1965.-С.5,230.
- Итоги исследования алкалоидноносных растений / -Т.: Фан. 1993. -106-110 с.
- Y.F.Kang, C.M. Liu, C.L.Kao, C.Y.Chen Antioxidant and Anticancer Constituents from the Leaves of *Liridendron tulipifera*.// Molecules. 2014.,-V.19.,-P. 4234-4245
- A.Abdusamatov; R. Ziyaev; S.Yunusov, Alkaloids of *Liridendron tulipifera*. // Chem.Nat.Compd. 1975.-V.11.-P. 829–830
- Kouam, S.F.; Ngadjui, B.T.; Krohn, K.; Wafo, P.; Ajaz, A. Prenylated anthronoid antioxidants from the stem bark of Harungana madagascariensis. //Phytochemistry. 2005.-V.66.-P. 1174–1179
- A.K.Yadav, S.H.Kim,S.C.Kang Chemical composition, antioxidant potential and cyto-protecting activity of essential oil of *Liridendron tulipifera* L. leaves // Kor. J. Herbol. 2015.V.30.,№4.,-P.1-9
- Ahmed, Aftab; Choudhary, M. Iqbal; Farooq, Afgan; Demirci, Betül; Demirci, Fatih; Can Başer, K. Hüsnü; et al."Essential oil constituents of the spice *Cinnamomum tamala* (Ham.) Nees & Eberm". 2000. Flavour and Fragrance Journal. –V.15. -№ 6.-P.388–390
- Katsiotis S. T. Langezaal C. R.; Scheffe, J.J. C."Analysis of the Volatile Compounds from Cones of Ten *Humulus lupulus* Cultivars". Planta Med. 1989.-V.55.-P.634
- Племенков, В. В. Введение в химию природных соединений. — К., 2001. — 376 с
- Wu C.C., Wu C.L., Huang S.L., Chang H.T. Antifungal activity of Liriodenine from *Michelia formosana* heartwood against wood-rotting fungi. Wood Sci. Technol. 2012. –V.46. -№4.-P.737–747